**UO‘K 37.02**

# BOLALAR JAMOASIDA DO‘STONA MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA KONGRUENTLIK SIFATLARINING AHAMIYATI

**I.X. Quronova**

*Maqolada kongruentlik sifatlari, ularning kattalar va bolalar hayotida tutgan o‘rni, bolalar jamoasida do‘stona munosabatlarni shakllantirishdagi ahamiyati o‘rganilgan. Bolalarda kongruentlikni rivojlantirishga yordam beradigan metodlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *kongruentlik, do‘stona munosabatlar, bolalar jamoasi, samimiylik, psixologik muhit.*

*В статье рассматриваются качества конгруэнтности, их место в жизни взрослых и детей, а также их значение в формировании дружеских отношений в детском коллективе. Представлены методики, помогающие развивать конгруэнтность у детей.*

**Ключевые слова:** *конгруэнтность, дружеские отношения, детский коллектив, искренность, психологическая среда.*

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar inson hayotining barcha jabhalariga kirib borishga ulgurdi. Zamonaviy texnologiyalar insonni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilsagina, u manfaatli hisoblanadi. Jadallik bilan rivojlanib borayotgan jamiyatda o‘rin topish uchun inson o‘zlikni anglash, boshqalar bilan muvaffaqiyatini baham ko‘ra olish, muloqot qilish, ichki va tashqi uyg‘unlikda hayot kechirish qobiliyatiga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fazilatlar orasida kongruentlik, ya’ni shaxsning ichki va tashqi uyg‘unligi alohida o‘rin tutadi. Kongruent sifatlar insonlarning bolalik chog‘laridan, avvalo oila, so‘ngra maktabgacha ta’lim tashkilotlari va maktab ta’limida bosqichma-bosqich tarbiyachi-pedagoglar tomonidan shakllantiriladi.

Kongruentlik tushunchasini Karl Rojers birinchilardan bo‘lib tahlil etgan. U kongruentlikni shaxsning ichki “Men”i va uning tashqi harakatlari orasidagi uyg‘unlik sifatida ta’riflagan. Rojers kongruentlikni o‘z-o‘zini namoyon etish va ruhiy salomatlik uchun asosiy omil sifatida ko‘rsatgan. U shaxsning avvaldan tarkib topgan “men”i va o‘zi erishmoqchi bo‘lgan “ideal men” o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida fikrlar bildirgan. Sol Makleod bu haqda shunday yozadi: “Rojersning fikriga ko‘ra, o‘z-o‘zini tasavvur qilish va ideal shaxs o‘rtasidagi muvofiqlik psixologik salomatlikni anglatadi. Agar ideal “men” haqiqiy bo‘lmasa yoki haqiqiy va ideal “men” o‘rtasida sezilarli tafovut bo‘lsa, nomuvofiqlik yuzaga keladi, bu esa norozilik, baxtsizlik va hatto ruhiy salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin” [1].

Leon Festinger, Albert Bandura, Abraham Maslou, Virjinia Satir, Viktor Frankl kabi olimlar kogruyentlik bo‘yicha o‘z nazariyalarini ishlab chiqqanlar.

Ma’lumki, bolalar maktabga qadar hayotlarining asosiy qismini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkazadilar. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalar oiladan tashqarida munosabatga kirishadigan kichik jamiyatdir. Ushbu tashkilot bolalarni tashqi muhit bilan tanishtiradigan, yangi odamlar, notanish qoidalar va belgilangan kun tartibiga moslashishi kerak bo‘lgan ilk ta’lim maskanidir. Bolalar ushbu maskanda 3 yoshdan to 7 yoshgacha barcha boshlang‘ich tarbiyani egallaydilar. Maktabgacha ta’lim tashkilotining vazifasi bolalar hayotini muhofaza qilish, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, o‘ziga ishongan, o‘zi va boshqalarni hurmat qilish ko‘nikmalarini egallagan, kongruentlik sifatlariga ega shaxsni tarbiyalash hisoblanadi.

Kongruentlik shaxsiy va ijtimoiy uyg‘unlik asosi bo‘lib, inson ichki olamida kechayotgan his-tuyg‘ular, fikrlar uning tashqi muhitdagi xatti-harakati, gap-so‘zlariga mos kelishi, uyg‘unligidir. Kongruentlik sifatlari insoniylikni mujassam etuvchi barcha ijobiy fazilatlar: bag‘rikenglik, adolatlilik, o‘zgalarga hurmat, boshqalarning fikri va dunyoqarashi, qadriyatlarini hurmat qilish kabilarni tushunib yetish va xatti-harakatlarida namoyon eta olish qobiliyati hisoblanadi. Kongruentlik sifatlariga ega inson o‘z-o‘zini anglagan, ichki xotirjamlikka, ichki muvozanatga erishgan shaxs bo‘lib, atrofdagilar bilan samimiy munosabat o‘rnatadi. Kongruentlik shaxsning o‘ziga bo‘lgan

ishonchini oshiradi, shu sababli kongruent shaxslar odatda atrofdagilarda ishonch uyg‘otadi va ular tomonidan do‘stona qabul qilinadi.

Kongruentlik sifatlarining shakllanishi dastlab oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshadi. Bolalar jamoasida do‘stona munosabatlarni shakllantirishda sog‘lom psixologik muhit yaratish, ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va bolalarda samimiylik, ochiqlik hamda o‘zaro hurmatni rivojlantirish ko‘pincha kongruentlik sifatlarini tarbiyalashga bog‘liq. Bolalar jamoasida kongruentlik sifatlarini rivojlantirish ular orasida o‘zaro do‘stona munosabatlar shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bolalar jamoasida bu sifatni rivojlantirish boshqalar bilan sog‘lom munosabatlar o‘rnatish va konfliktlarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Ko‘p hollarda do‘stlar jamoasida bolalar o‘zlari uchun ideal deb bilgan boladan andoza oladi, fikr o‘g‘irlaydi, jamoadoshi ular uchun qabul qilgan qarorlarga e’tiroz qilmaydi va hayotiga tatbiq etadi. Kattalar undan buning sababini so‘raganida u tengdoshini motiv qilib ko‘rsatadi. Shu sababli har bir bola kongruentlikka erishgan bo‘lishi kerak. Kongruentlikka erishmagan bola o‘zi uchun ideal deb bilgan tengdoshiga o‘zida kechayotgan his-tuyg‘ularni bildira olmaydi, o‘zining individual xususiyatlariga mos kelmaydigan holatlarga qarshi fikr bildirishga ojizlik qiladi. Bolalarda ushbu holatlar, ya’ni “o‘zidan voz kechish” jarayonlari yuz bermasligi uchun har bir bolada kongruentlik sifatlarini shakllantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borish zarur. Bunda do‘stona munosabatlarda haqqoniylik, vaziyatni to‘g‘ri baholash, o‘z sherigi his-tuyg‘ularini, harakatlarini hurmat qilgan holda adolatli yondashish va uni boricha qabul qilish shartlarini tushuntirish zarur.

Bolalarga, avvalo, o‘zini anglab yetishni, o‘zida kechayotgan his-tuyg‘ularni nomlashni o‘rgatish zarur bo‘ladi. Bunda tarbiyachi bolalarga turli xil savollar bilan murojaat qiladi. Bola ichki olamida nimalar kechayotganini yuzaga chiqarish uchun unga turli xil variantdagi savollar beriladi, ya’ni “Xafamisan?”, “Bundan ko‘ngling to‘lmayaptimi?”, “O‘zingni yaxshi his qilyapsanmi?”, “Hayajonlanmayapsanmi?”, “O‘yinchog‘ingni berishni xohlamayapsanmi?”, “Qo‘rqyapsanmi?” va boshqalar. Bolalar ko‘p hollarda vaziyatga nisbatan ijobiy munosabatini bemalol bildira oladi, ammo ba’zi bolalar salbiy fikrini ochiq-oydin bayon etishga o‘zida kuch topa olmaydi. Bunga bolaning o‘z ichki olamida yuz berayotgan psixologik holatlarni ochiq-oydin bildira olmasligi sabab bo‘ladi; boshqalarni xafa qilishdan yoki uni qo‘llab-quvvatlamasliklaridan qo‘rqadi, o‘ziga ishonmaydi va uyaladi. Bolalarda yuz berayotgan jarayonlardan sezish mumkinki, ularda o‘ziga nisbatan ishonchsizlik yuqori, o‘z fikrini isbotlay olmaydi, o‘zini himoya qilishga qodir emas yoki tengdoshlari bilan yaqin munosabat o‘rnatmagan, ular tomonidan qabul qilinmagan kabi holatlar bo‘lishi mumkin. Mazkur vaziyatlarning oldini olish maqsadida tarbiyachi kuzatishlar olib borishi va bolalarda yuz berayotgan jarayonlarni bartaraf etish maqsadida turli mashg‘ulotlar o‘tkazishi talab etiladi.

Tarbiyachi-pedagog bolalarda kechayotgan his-tuyg‘ularni nomlashni o‘rgatishi zarur. Bunda tarbiyachilarga bolalar o‘rtasida quyidagi metodikani o‘tkazish tavsiya etiladi:

*So‘rovnoma metodikasi. “Siz qanday odamsiz?”*

Metodika jarayonida bolalar bilan navbatma-navbat so‘rovnoma tarzida mashg‘ulot olib boriladi. Oq va qora rangli kartochkalar tayyorlanadi. Tarbiyachi o‘zini o‘zi baholashga oid turli xil savollar tuzadi va tanlangan bolaga ushbu savollar beriladi. Sinalish uchun tanlangan bola savollarga javob berishda o‘ziga tegishli bo‘lgan xususiyatlarga oq rangli kartochkani, tegishli bo‘lmaganlariga esa qora rangli kartochkani ko‘rsatadi. Bunda bolalar o‘zining haqiqiy “men”ini baholaydi.

1. Bilimdon.
2. Odobli.
3. O‘rtoqlari bilan yaxshi munosabatda bo‘ladi.
4. Kattalarni hurmat qiladi.
5. Kuchli.
6. Jahldor.
7. Muloyim.
8. Bilim olishni xohlamaydi.
9. Ko‘ngilchan.
10. Maqtovni yaxshi ko‘radi.
11. Tanqidni yoqtirmaydi.
12. Yordam berishni yaxshi ko‘radi.
13. Xushchaqchaq.
14. O‘ziga ishongan.
15. Do‘stlarini boshqarishni yaxshi ko‘radi.
16. Arazchi.
17. Narsalarini qizg‘anadi.
18. Qo‘li ochiq.
19. Mehribon.
20. Bag‘ritosh.
21. Uyatchan.
22. Har doim faol.

Ushbu savollarga dastlab tanlangan bolaning o‘zi javob berib bo‘lgandan so‘ng guruh a’zolaridan bolaning javoblarini to‘ldirish yoki tasdiqlash

so‘raladi. Bolalar savollarga sinaluvchi haqida tasavvurlaridan kelib chiqqan holda “ha” yoki “yo‘q” deb javob beradilar yoki oq va qora rangli kartochkalarni ko‘rsatadilar. Bu metodika yordamida har bir bola o‘zini yanada to‘g‘ri baholashni o‘rganadi. Tengdoshlari bildirgan fikrlar va sinaluvchining fikrlari taqqoslanadi, javoblar tarbiyachi bilan birgalikda tahlil qilinadi, ijobiy javoblar ta’kidlanadi, salbiylari rivojlanish imkoniyati sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu metodika yordamida bolalar tarbiyachining ko‘magi yordamida o‘zini to‘g‘ri baholashni o‘rganadi va ichki uyg‘unlikni shakllantiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida har qanday faoliyat turi jamoaviy tarzda o‘tkaziladi. Har bir bola oila, bog‘cha, do‘stlar jamoasida o‘rin topishni va e’tirof etilishni xohlaydi. 6–7 yoshli bolalar o‘z xatti-harakatini anglagan holda boshqara oladilar. Ushbu yoshda ularda kongruentlikni shakllantirish juda muhimdir. Bolalar jamoasida do‘stona muhitni yaratishda kongruentlik sifatlarini tarkib toptirishning ahamiyati katta. Do‘stona munosabatlar shakllanishida kongruentlikning ahamiyati quyidagilardan iborat:

1. *Samimiy muloqot*. Kongruentlik turli vaziyatlarda jamoada bolalarni o‘z his-tuyg‘ularini ochiq va samimiy ifoda etishga undaydi. Bu ularga o‘z fikrlarini ochiq-oydin, tushunarli bildirish va boshqalar fikrini tinglash ko‘nikmasini beradi.

2. *Ishonchli munosabatlar*. Ichki va tashqi uyg‘unlik, bildirilgan fikrlarga harakatlarning mos kelishi bolalarning bir-biriga bo‘lgan ishonchini oshiradi va jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratadi.

3. *Konfliktlarni kamaytirish*. Kongruent sifatlariga ega bolalar jamoada yuzaga kelgan muammolarni samimiy va adolatli tarzda hal qilishga moyil bo‘ladi, bu esa nizolarni kamaytiradi.

4. *Hamjihatlik va hurmat*. Kongruentlik bolalarni bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga va jamoaviy ishda faol qatnashishga undaydi.

Do‘stlik munosabatlarida kongruent sifatlarning o‘rni beqiyos. Chunki do‘stlik rishtalarining asosini haqqoniy munosabatlar tashkil etadi. Shuning uchun ham xalqimizda “Do‘st achitib gapiradi” degan maqol bor. Kongruent sifatlariga ega bo‘lgan bolalar munosabatga kirishishda har xil to‘siqlarga uchramaydi. 6–7 yoshli bolalar vaziyatlarni baholashni va ushbu holatda qanday yo‘l tutishni ongli tarzda tanlaydi va harakatlari orqali namoyon qiladi. Ushbu davrda bolalar ongli tarzda yolg‘on gapiradi, o‘zidan yuqori sanagan bolaga mulozamat qilishga harakat qiladi, bolalar tilida aytganda, “bog‘chaga chiroyli kiyinib kelgan, qiziqarli o‘yinchoqlar va yegulik olib kelgan” bolalarga bolalarcha qiziqish bildiradi. Mazkur holatlar oddiy qiziqish ortidan qilingan mulozamatdek ko‘rinadi, aslida esa bu bolaning o‘z manfaati yo‘lida tuzilgan ayyorona “rejasi” hisoblanadi. Ular qayta-qayta takrorlanavergach odatga aylanadi va natijada hayot tarzining bir qismini egallaydi. Bu kabi holatlar yuz berganda tarbiyachi ota-ona bilan hamkorlikda bola bilan tarbiyaviy ishlar olib borishi talab etiladi. Bolalarda ushbu holatlarning uchrashi ularda kongruent sifatlarni shakllantirishga to‘siq bo‘ladi, chunki bola o‘zi uchun noto‘g‘ri yo‘nalish tanlab oladi. Bunday bolalarning do‘stlari kam bo‘ladi, jamoaga qo‘shila olmaydi. Jamoadan ajralib qolish bola ruhiyatiga salbiy ta’sir qiladi yoki o‘zi uchun qulay yo‘lni, ya’ni “mening aybim yo‘q, ular aybdor” degan tushunchani ongiga singdiradi, shu orqali bola o‘ziga taskin beradi, o‘zini aldaydi. Tarbiyachi bunday bolalarga faqat do‘stlar jamoasida yordam bera oladi. Shu bilan birga bola bilan individual suhbat o‘tkaziladi, turli savollar beriladi. Agar bola savollarga javob berishni xohlamasa unga savol tariqasida bir qancha javoblar variantini taqdim etadi.

Misol uchun bolaga shunday savol berish mumkin: “*Nega do‘stlaringdan xafasan*?”

Javob variantlari:

“*Seni guruhga qo‘shishni xohlashmayaptimi?*”

“*Senga aynan ularning qaysi gapi yoqmayapti?*”

“*O‘zing xohlamayapsanmi?*”

“*Yolg‘on gapirganingni bilib qolishdimi?*”

“*Ularni xafa qilganing uchun birga o‘ynay olmayapsanmi?*”

“*Uyalyapsanmi?*”

*“Qilgan ishingdan afsuslanyapsanmi?*”

“*Ulardan kechirim so‘ramoqchi ekaningni ayta olmayapsanmi?*”

Bolaga ushbu variantlardan birini tanlash qulayroq. Chunki tarbiyachi yordamida o‘zida kechayotgan his-tuyg‘ularni nomlay oladi va aybini tan olishi oson kechadi.

Tarbiyachi “His-tuyg‘ular so‘zi” mashqi yordamida jamoadan ajralib qolgan bolaning yana do‘stlari davrasiga qo‘shilishiga yordam beradi. Bu mashq quyidagicha olib boriladi. Bolalar doira bo‘lib o‘tiradilar. Har bir bola ayni damda o‘zini qanday his qilayotganini so‘zlar orqali ifodalashi taklif qilinadi. Dastlab tarbiyachi o‘zi boshlab beradi: “Men hozir sizlar bilan birga o‘yin o‘ynayotganimdan xursandman”. Savolga javob berishni navbat bilan bolalar davom ettirishadi. Guruhdan ajralib qolgan bolaga navbat kelganida tarbiyachi his-tuyg‘ularini bildirishda o‘ziga ishonishi uchun unga biroz yordam be-

radi, bola esa ushbu mashq orqali guruhdoshlariga qilgan ishidan afsuslanganini va qayta takrorlamasligini aytadi. Tarbiyachi tashabbusni qo‘lga olib, “Biz seni kechirdik, hamma ham xato qiladi, asosiysi – uni takrorlamaslik. Qani, bolalar, birgalikda “Seni yaxshi ko‘ramiz” deb aytamiz” deya guruhga taklif beradi, albatta, bolalar ham tarbiyachiga ergashadilar. Qo‘shimcha tarzda tarbiyachi bolalarga tengdoshining xatosini samimiylik bilan tushuntirish va unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish kerakligi haqida tushunchalar beradi. Bu mashq orqali bolalar bir-birini tushunish, o‘z his-tuyg‘ularini aniqlash va ifodalash, xatosidan xulosa chiqarish va o‘ziga ishonishni o‘rganadi.

Xulosa qilib aytganda, kongruentlik insonning o‘z-o‘zini anglashi va ichki olami bilan tashqi xatti-harakatlarini muvofiqlashtira olishidir. Kongruentlik xususiyatlari insonning oilada, do‘stlar, jamoadoshlari davrasida hurmat qozonishi, hayotda baxtli va o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, e’tirof etilgan, barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida o‘rin tutadigan muhim sifatlardir. Kongruentlik birdaniga shakllanib qolmaydi, u bolalik davrlaridanoq shakllantirilishi lozim. Shu sababli bolalarda kongruentlikni shakllantirishni bog‘cha yoshi davridan boshlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachilar bolalar bilan o‘z his-tuyg‘ularini nomlash, hissiyotlarini boshqarish va ifodalashga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar o‘tkazishi tavsiya etiladi. Bunday mashg‘ulotlar o‘z-o‘zini anglash, samimiy muloqot va boshqalar bilan sog‘lom munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa o‘z navbatida bolalarning shaxsiy rivojlanishiga hamda jamoada uyg‘un munosabatlar shakllanishiga zamin yaratadi.

## Adabiyotlar:

1. *Saul McLeod*. Carl Rogers Humanistic Theory And Contribution To Psychology [Internet manba]. URL: https://www.simplypsychology.org/carl-rogers.html (Murojaat etilgan sana: 03.07.2024)

2. *Mirzayev S.* Bo‘lajak o‘qituvchilarda kongruentlik sifatlarini shakllantirishning ilmiy ahamiyat. // Scientific Impulse, 2023. 1(8). – B. 223–225.

3. *Berdiyeva S.E., Mirzayev S.A.* Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kongruentlik sifatlarini shakllantirish texnologiyasi. // “Ta’lim tizimida innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Tashkent: TDPU, 2024. – B. 448–452.

4. *Mirzayeva D.S.* Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2022. – 147 b.

5. *Isomova F.T.* Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida MTT va oila hamkorligining ahamiyati // Technical science research in Uzbekistan, 2024. – № 2(1). – B. 188–193.

6. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. / Tuzuvchilar: Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Evstafeva L.G., Mahmudova D.T. va boshqalar. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent, 2022. – 13 b.

7. *Nishonova Z., Alimova G.* Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. – 160 b.

8. *Sodiqova Sh.* Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2013. – 288 b.

9. *Ismoilova N., Abdullayeva D.* Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. –168 b.

10. *Kayumova N.* Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013. – 184 b.

# THE SIGNIFICANCE OF CONGRUENTIAL QUALITIES IN THE FORMATION OF FRIENDLY RELATIONSHIPS IN A GROUP OF CHILDREN

**Ismigul X. Quronova**[1]

*Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific bulletin. Series: Pedagogical Research.* 2024. 6(82). 54-59.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

**Key words:** *congruence, friendly relations, children's team, sincerity, psychological environment.*

The education and upbringing process of Uzbekistan, which is rapidly advancing, cannot be imagined without modern technologies and methods. The main goal is to organize education in which the national identity of each nation is embedded in the conditions for applying modern technologies to the education and training process. In any society, it is an important factor to have human qualities that contribute to the development of people. A person matures as a happy person with his own place in society only when he grows up with education, including all human qualities from childhood. In order for a person to understand and not lose his identity, his inner and outer worlds must be in harmony with each other. Sincerity towards others, fairness, understanding and respect for the dignity of others, accepting each person as they are, manifesting the processes taking place in their inner world through their actions with clear restraint, self-confidence, avoiding making mistakes fearlessness and others constitute these qualities. These qualities are called congruence in science, i.e. harmony, compatibility. A congruent person is respected in the family, in the circle of friends, among teammates, and is recognized by others. Congruence is gradually formed in the family, kindergarten and school. In this article, we discuss the importance and necessity of congruence in kindergarten education and the formation of friendly relations in children's groups, and we recommend several methods.

## References:

1. Saul McLeod. *Carl Rogers Humanistic Theory And Contribution To Psychology* [Online]. URL: https://www.simplypsychology.org/carl-rogers.html (Date of Access: 03.07.2024)

2. Mirzayev, S.(2023). Bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik sifatlarini shakllantirishning ilmiy ahamiyat [Scientific significance of forming congruentity qualities in future teachers]. *Scientific Impulse*. 1(8). Pp. 223-225.

3. Berdiyeva, S.E., Mirzayev, S.A. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kongruentlik sifatlarini shakllantirish texnologiyasi [Technology of formation of congruence qualities in elementary school students]. In: '*Ta'lim tizimida innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari*' [Issues of using innovative and digital technologies in the education system]. Materials of the international scientific and practical conference. Tashkent: TDPU. Pp. 448-452.

4. Mirzayeva, D.S. (2022). *Maktabgacha pedagogika* [Preschool Pedagogy]. Tashkent.

5. Isomova F.T. (2024). Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida MTT va oila hamkorligining ahamiyati [The importancye of social media and family cooperation in the development of preschool children]. *Technical science research in Uzbekistan*. 2(1). Pp. 188-193.

6. Grosheva, I.V., Mirziyoyeva, Sh.Sh., Evstafeva, L.G., Mahmudova, D.T. (ed.) (et.al.) (2022). *"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi* ['Ilk qadam' state educational program]. Improved second edition. Tashkent.

7. Nishonova, Z., Alimova, G. (2006). *Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi* [Child psychology and teaching methods]. Tashkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

8. Sodiqova, Sh. (2013). *Maktabgacha pedagogika* [Preschool Pedagogy]. Tashkent: Tafakkur bo‘stoni.
9. Ismoilova, N., Abdullayeva, D. (2013). *Ijtimoiy psixologiya* [Social psychology]. Tashkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
10. Kayumova, N. (2013). *Maktabgacha pedagogika* [Preschool Pedagogy]. Tashkent: TDPU nashriyoti.

*Muallif haqida ma’lumot:*

**QURONOVA Ismigul Xolmurod qizi** – Andijon davlat universiteti Pedagogika fakulteti Umumiy pedagogika kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: ismigulkuranova@gmail.com